

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TOLIPOV BAXTIYOR XAMITOVICH

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINI
SOG‘LOM RAQOBAT MADANIYATI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc) on
philosophical sciences**

Tolipov Baxtiyor Xamitovich

Yangi O‘zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog‘lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari3

Толипов Бахтиёр Хамитович

Социально-философские факторы развития экономической активности
молодежи в новом Узбекистане на основе культуры здоровой
конкуренции.... 33

Tolipov Bakhtiyor Xamitovich

Socio-philosophical factors of developing youth economic activity based on a
healthy competition culture in new Uzbekistan.....67

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ.
List of works published.....72

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TOLIPOV BAXTIYOR XAMITOVICH

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINI
SOG‘LOM RAQOBAT MADANIYATI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/Fal323 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Namozov Bobir Bahriyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Xajiyeva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "11" May soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~877~~ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "28" aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil "28" aprel dagi 9 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Shodmonov Q.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli iqtisodiyot, innovatsion tadbirkorlik, startaplar asosida biznes va mehnat bozorining transformatsiyasi sharoitida yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirish shaxsning iqtisodiy ongini, ijtimoiy mas'uliyatini, raqobatga kirishish madaniyatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Buning uchun esa, bozor iqtisodiyotining rivojini ta'minlovchi omil sifatida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, raqobat madaniyati, iqtisodiy tafakkur, noodatiy, murakkab, ichki ziddiyatlarga to'la muammolarni yechishga, alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning tarkibiy tuzilishi, funksional ahamiyati, paradigmal o'zgarishlari dinamikasini hamda sog'lom raqobat madaniyatini mustahkamlovchi va aksincha uni yemiruvchi fazilat va illatlarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida iqtisodiy faollik, tadbirkorlik motivatsiyasi, yoshlar ijtimoiylashuvi masalalari bilan bir qatorda, "sog'lom raqobat madaniyati"ni yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantiruvchi mexanizm sifatida asoslashga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy faollikni umuminsoniy taraqqiyotdagi ahamiyatini, talab va ehtiyojlarning ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar dinamikasiga ta'sirini, iqtisodiy tashabbuslar, biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashda sog'lom iqtisodiy raqobat madaniyatini shakllantirish va bu boradagi muammolarni bartaraf etish, raqobatning obyektiv rivojlanish qonuniyatlari, harakatlantiruvchi motivlari, konyunkturasidagi o'zgaruvchanlik xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlar iqtisodiy faolligining rivojlanish xususiyatlari, umumaxloqiy qonunlar bilan sababiy bog'lanishi, mulkdorlar qatlamining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi xarakterli belgilari va amal qilish tamoyillarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda yoshlarning iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi islohotlar, faol tadbirkorlik va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. "Yangi O'zbekiston – avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar va yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. ... biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish juda muhim. Kerak bo'lsa, bundan buyon Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish – mamlakat taraqqiyotiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish, deb baholanadi. Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash – xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo'li, Yangi O'zbekistonni barpo etishning pirovard maqsadidir"¹. Zero, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantiruvchi milliy xarakter, tarixiy madaniy tajriba singari potensial imkoniyatlari, etnosotsial jihatlari, ularni amaliyotga tatbiq qiluvchi iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va kambag'allikni qisqartirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini ochib berish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: "О'zbekiston", 2024. - Б. 98-100.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-iyuldagi O‘RQ-850-son “Raqobat to‘g‘risida”, 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida” qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-son “O‘zbekiston Respublikasi xususiylash-tirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Global iqtisodiyot va bozor mexanizmlari sharoitida sog‘lom raqobatni rivojlantirishning axloqiy jihatlari, uning insonparvarlik mohiyati, ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi o‘rni va iqtisodiy munosabatlar madaniyatini shakllantirishga ta’siri bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar o‘ dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Hochschule Furtwangen University, Ludwig Maximilian University of Munich (Germaniya), L’Universite Lille (Fransiya), London School of Economics (Angliya), University of Michigan (AQSh), Doshisha University (Yaponiya), University of Toronto, Cape Breton University (Kanada), Natsionalniy issledovatel’skiy Nijegorodskiy gosudarstvenniy universitet (Rossiya) va Farg‘ona davlat universitetlarida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp>; <https://www.utoronto.edu>; <https://www.cbu.ca>; <https://www.unn.ru>; <http://library.fes.de/>; <https://www.ritsume.ac.jp/>. va boshqa elektron manbalar asosida tayyorlangan.

Iqtisodiy raqobat manzarasi, sogʻlom raqobatning iqtisodiy natijadorlikni oshiruvchi omil, halollik, ochiqlik, teng imkoniyat, ijtimoiy masʼuliyat va meʼyoriy tartibga tayanuvchi axloqiy hodisa ekanini asoslashga oid falsafiy tadqiqotlar tahlili quyidagi ilmiy natijalarda namoyon boʻlmoqda: bozor iqtisodiyotining raqobat, tashabbuskorlik va manfaatdorlik tamoyillari asosida shakllanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan (Hochschule Furtwangen University, Ludwig Maximilian University of Munich, Germaniya); siyosiy guruhlarining jamiyatda raqobat muhitini yuzaga keltirishdagi roli hamda bu jarayonning keng tashabbuskorlik bilan uzviy bogʻliqligi ochib berilgan (L'Universite Lille, Fransiya); iqtisodiy globallashtirishning hozirgi bosqichida taraqqiyot va raqobat oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik isbotlangan (London School of Economics, Angliya); siyosiy raqobatning davlat boshqaruvi va qonun ijodkorligi tizimidagi funksional ahamiyati yoritilgan (University of Michigan, AQSh); bozor iqtisodiy munosabatlarini tarixiy voqelik faktlari asosida tahlil qilish orqali uning institutsional strukturasi hamda turli ijtimoiy qatlamlarning bozor subyekti sifatidagi ijtimoiy funksiyalari aniqlangan (Doshisha University, Yaponiya); iqtisodiy faoliyat subyektlarining axloqiy majburiyatlari ishlab chiqilib, ularning amaliy ahamiyati asoslangan; bozorni ijtimoiy fenomen sifatida iqtisodiy rivojlanish bosqichlari kontekstida xronologik tahlil qilish asosida iqtisodiy hodisalarni tavsiflash metodologiyasi takomillashtirilgan (The University of Toronto, Cape Breton University, Kanada); ijtimoiy siyosatning jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil amal qilishi sharoitida sogʻlom raqobatni nafaqat iqtisodiy, balki boshqa ijtimoiy sohalarida ham rivojlantirish zarurati asoslab berilgan (N.I. Lobachevskiy nomidagi Nijegorod davlat universiteti, Rossiya); ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotining paradigmalar rivojlanishi jarayonidagi ijtimoiy muammolar esa dialektik kategoriyalar tizimi kontekstida ochib berilgan (Fargʻona davlat universiteti, Oʻzbekiston).

Dunyoda iqtisodiy raqobatni sogʻlomlashtirishning nazariy jihatlarini mustahkamlashga doir qator ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: yoshlar iqtisodiy faolligini sogʻlom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va aksiologik asoslari: uning institutsional va axloqiy mezonlarini takomillashtirish; yoshlar iqtisodiy faolligini sogʻlom raqobat madaniyati negizida rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, qadriyatli asoslari va amal qilish mexanizmlari.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbekistonda ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda sogʻlom raqobatning tutgan oʻrni, shuningdek yangicha rivojlanish bosqichida olib borilayotgan islohotlarda sogʻlom raqobatni yoʻlga qoʻyish borasidagi konsepsiyalar va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning asarlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos boʻlib xizmat qildi³.

³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. -Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2020. – 456 b.; Yangi Oʻzbekistonda erkin va forovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2023. – 408 b.; Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yoʻlini qatʼiy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2023. – 520 b.; Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2023. – 392 b.; Bir boʻlsak – yagona xalqimiz, birlashsak – vatanimiz. 8-jild. – Toshkent, "Oʻzbekiston" NMIU, 2024. – 344 b.; Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. –Toshkent.: Oʻzbekiston. 2021. – 454 b.; Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Т.: "Oʻzbekiston", 2024. – 560 b.;

Xorijlik olimlardan T.Vuurenb, K.Dama, S.Kemrs, M.Pitt, R.Nolman, P.Xayn, T.Shuls, G.Bekker, S.Rogerson, T.Biynum, T.Froyehlich, R.Kapurro, L.Floridi, R.Mason, K.G.Hoqlarning ilmiy izlanishlarida iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy asoslari, iqtisodiy faollik va iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish muammolari, sogʻlom raqobat muhitida iqtisodiy faollik asoslari tadqiq etilgan⁴.

MDH mamlakatlarida S.Jukov, P.Juravlev, A.Kokina, R.Mumladze, Yu.Odegov, A.Rofe, G.Ye.Tretyak, O.I.Timofeyeva, Ye.V.Putenixina, T.Zaslavskaya, A.Ageyev, V.Radayev kabi tadqiqotchilar posttotalitar tuzumdan keyingi ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi oʻzgarishlar, tizimli transformatsiya jarayonlari, insonning iqtisodiy huquq va erkinliklarini milliy zaminlarda roʻyobga chiqarish, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyaning ilmiy texnik va jamiyat taraqqiyotiga oid masalalar oʻrganilgan ilmiy izlanishlar olib borishgan⁵.

Oʻzbekistonlik olimlar Sh.Negmatova, B.Valiyev, L.Djurayev, Q.Abduraxmonov, H.Abulqosimov, Sh.Shodmonov, B.Umurzakov, G.Abdurahmonova, T.Joʻrayev, U.Gʻofurov, M.Ashurova, Sh.Xolmoʻminov, N.Zokirova, D.Ortiqova, D.Rahimova, Z.Xudoyberdiyev, Sh.Kudbiyev, N.Arabov, A.Razzoqov, N.Xasanxonova, Oʻ.Rajabov, A.Xudoyqulov, I.Ubaydullayevlarning ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning iqtisodiy ongini oʻstirish, iqtisodiy madaniyatini shakllantirish, iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash va siyosiy partiyalar oʻrtasida

⁴ Dam K, Vuuren T & Kemps S. (2017) Sustainable employment – the importance of intrinsically valuable job and an age-supportive climate, *The International Journal of Human Resource Management*, -p. 125-134; Smith, Andrew & Pitt, Michael. (2011). Sustainable workplaces and building user comfort and satisfaction. *Journal of Corporate Real Estate*. 13. 144-156.; Nollman, Megan R., “Sustainability initiatives in the workplace and employee productivity” (2013). Research Papers. Paper 441.; Pitt, Michael. (2011). Sustainable workplaces and building user comfort and satisfaction. *Journal of Corporate Real Estate*. 13. 144-156.; Smith, Andrew & Pitt, Michael. (2011). “Sustainable workplaces and building user comfort and satisfaction”. *Journal of Corporate Real Estate*. 13. –Pp.144 -156.; Paul Heyne. *The Economic Way of Thinking*. *Journal of Corporate Real Estate*. –Pp. 137-148.; Schulz T. *Capital Formation bi Edukathion // Journal of Politikal Economu*. – 1960. – №1. – R. 25., Ўша муаллиф: *Investment in Human Capital // American Economic Reven*. – 1961. – №1.; Беккер Г.С. Человеческое поведение: Экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – С. 672.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М.: Academia, 1999. – С. 949.; Capurro R. Towards an ontological foundation of information ethics. – Klostermann, Frankfurt am Main, 2018. –P.16; Rogerson S., Bynum T.W. Information ethics: the second generation. *The future of information systems*, UK AIS. 1996, – P.28; Froehlich.T. A brief history of information ethics. *International Federation of Library Associations*. – Munich: G.K. Saur, 1997. – P. 25; Floridi L. Foundations of Information Ethics. In book: *The handbook of information and computer ethics*. John Wiley & Sons, Inc. – Canada, 1998. – P. 3-21; Ҳок К.Г.“Informatsion ethics and its implications for library and information professionals: a contemporary analysis”.*Philosophy and Progress: Vols. LI-LII*, – Malaysia, 2012. – P. 23.

⁵ Жуков С., Резникова О.В. Центральная Азия в социально-экономических структурах современного мира. Москва: Московский общественный научный фонд, 2001; Журавлев П. Управление человеческими ресурсами: опыт индустриально развитых стран. – М: ЭКЗАМЕН, 2005; Кокина А.Я. Экономика труда. Учебник. – М.: Магистр, 2010. – 293 стр.; Кокина А.Я. Экономика труда. Учебник. М.: Магистр, 2010. – 293 стр.; Мумладзе Р.Г. Экономика и социология труда: учебник / под общ ред Р.Г. Мумладзе. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2007.; Оdegov Ю.Г. Экономика труда: Учебник – М.: Волтерс Клувер, 2011. – 768 с.; Третьяк Г.Е, Гуремина Н.В., Цыпленкова М.В., Султанова А.А., Лаптёнок А.Н. Личность предпринимателя. Изд-во Академия Естествознания. 2014. –С.215. Тимофеева О.И. Экономическое мышление предпринимателя // *Международный журнал экспериментального образования*. – 2009. – № 6. –С. 62-70; Путехина Е. В. Экономическое мышление -предмет междисциплинарного исследования. *Научные сообщения*. 2008. С.208.; Заславская Т. Бизнес слой российского общества: сущность, структура, статус // *Общественные науки и современность*. – №1. – С. 22; Агеев А.И. Предпринимательство: проблемы собственности и культуры. – М., 1991. – 112 с.; Радаев В.В. Экономическая социология. Курс лекций: Учеб. пособие. – М.: Аспект Пресс, 2011. – 368 с.

sogʻlom raqobatni shakllantirishning baʼzi jihatlari tadqiq etilgan⁶. Bu sohadagi islohotlarning tub mohiyatini ochib berishga doir qarashlar Q.Nazarov, A.Sharipov, N.Safarova, M.Xajiyeva, A.Huseynova, S.Choriyev, I. Saifnazarov va A. Muxtorov kabi olimlar asarlari⁷da muhim fikr va mulohazalar bayon qilinganini alohida taʼkidlash lozim albatta.

Umuman olganda, mavjud ilmiy ishlarda iqtisodiy raqobat, uning bozor munosabatlari tizimidagi oʻrni, sogʻlom raqobatning ayrim iqtisodiy, huquqiy va axloqiy jihatlari maʼlum darajada tadqiq etilgan. Biroq Yangi Oʻzbekiston sharoitida yoshlar iqtisodiy faolligini sogʻlom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari, uning shakllanish mexanizmlari, institutsional xususiyatlari va amaliy takomillashtirish yoʻllari yetarli darajada kompleks tarzda ochib berilmagan. Mazkur tadqiqotda aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida sogʻlom raqobat madaniyatining yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishdagi ijtimoiy-falsafiy mohiyati, unga taʼsir etuvchi omillar, ushbu jarayonning transformatsion xususiyatlari hamda uni rivojlantirish tamoyillarini tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratilgan.

⁶ Negmatova Sh.Sh. Oʻzbekistonda sogʻlom raqobatni rivojlantirishning maʼnaviy, axloqiy va huquqiy jihatlari. –T: Fan, 2016.; Valyiev B.N. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari: fal.f.n. ...avtoreferati. –T.: OʻzMU, 2004.; Djurayev L.N. Zamonaviy Oʻzbekiston jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformatsiyalashuvi – innovatsion sotsiomadaniy fenomen sifatida. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand, 2021.; Abdurahmonov K.X. Mexnat iqtisodiyoti va sotsiologiya. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.; Abdurahmonov K.X. Iqtisodiyotda sunʼiy intellekt asoslari [Matn]: darslik. – Toshkent: ILM-Ziyo zavkat, 2024. – 408 b.; Abulqosimov X.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. –T.: Akademiya, 2006. – 346 b.; Umrzakov B.X., Rahimov M. Mexnat munosabatlari va mentalitet. – T.: Uzbekiston, 2005.; Holmʼminov Sh.P. Mexnat bozori iqtisodiyoti. – T.: TDIU, 2004. – 202 b.; Zokirova N.K. Sosialno-trudovye otnosheniya: mehdunarodnyy i natsionalnyye aspekty. – T.: Fan, 2008. – S. 88.; Artykova D.A. Formirovaniye zanyatosti naseleniya v Respublike Uzbekistan. – T.: Fan, 2005.; Xudoyberdiyev Z.Ya. va b. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: ILMZIYO, 2016.; Kudbiyev Sh.D. Raqamli iqtisodiyot rivojlantirishda mexnat bozorini transformatsiyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Avtoreferat. 2021. – 68 b.; Arabov N.U. Uzbekiston Respublikasida mexnat bozori infratuzilmalari rivojlantirish samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 210; Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarqashmalari. –T.: Oʻzbekiston, 2011. 248-b., Hasanxonova N.I. Iqtisodiy tafakkurni shakllantirish usullari va ularning tavsifi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil., U.D.Rajabov. Iqtisodiy taʼlimning iqtisodiy tafakkurga taʼsiri. <https://cyberleninka.ru/article/n/iqtisodiy-talimning-iqtisodiy-tafakkurga-tasiri/viewer>, Valiev B. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2008. – 150 b. Xudoykulov A. B. Jamiyat ijtimoiy rivojlantirishda iqtisodiy ongning roli (falsafiy taʼtil): Falsafa fan. nomz. ... dis. – T., 2005. – 155 b. I.A.Ubaydullaev. Uzbekistonda mulkdorlar geoiqtisodiy tafakkurini shakllantirish rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. Fals.fan. fal.doktori dis. T.: 2018. –B. 46.

⁷ Nazarov Q. National idea and development strategy of Uzbekistan. // National Society of Philosophers of Uzbekistan – Tashkent, 2019.; Sharipov A.3. Yangi Uzbekistonda maʼnaviy-maʼfuraviy islohotlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy taʼtili: Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2021; Sharipov A.Z. Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi – yurtimizda inson qadrini oshirish hamda maʼnaviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida. – FarDU. Ilmiy xabarlar. 2025-2. –B.60–64. Safarova N. Hozirgi tashavvufiy taʼlimotida maʼnaviy-axloqiy kadriyatlar masalasi. Fal. fan. dok. ...diss. –Toshkent: 2002.; Khajiyeva M.S. Philosophical essence of humanistic ideas of our thinkers. Central Asian Problems of Modern Science and Education.4 (2). 2019.-Pages 253-268. Huseynova A. Sharq mutaʼakkirlari dunyoqarashida umuminsoniy kadriyatlar. Monografiya. – T.: Paradigma, 2017. – B.136, Choriyev A., Choriyev S.A., Renaissance davri. Yevropa falsafasi. Tafakkur qanoti. 2015. – B.112., S.Choriyev. Siyosiy ijtimoiylashuv. -Qarshi -2024.-B.115.; I. Saifnazarov. Maʼnaviy barqarorlik va siyosiy madaniyat. T.:Sharq, 2001. –B.145; Saifnazarov I. Virtual oʻlam va uning eʼshlari maʼnaviyati uchun xavf-xatarlar // “Uzbekiston eʼshlar tarbiyasi va maʼnaviy-maʼrifiy ishlarining natijadorligi: muammolar va echimlar” ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari toʻplami – Farqona: “Farqona”, 2018.; Muxtorov A. Milliy goya takomilida ehtiʼj va manfaatlar birligi: Fals. fan. dok. ... dis. avtoref. –Toshkent:UzMU, 2011;

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" (2022-2026 y.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

"yoshlar iqtisodiy faolligi" tushunchasining ilmiy-konseptual mazmunini aniqlash, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, tarkibiy belgilari va shakllanish xususiyatlarini ochib berish;

yoshlar iqtisodiy faolligiga oid nazariy qarashlarning tarixiy genezisini va rivojlanishiga ta'sir etgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy omillarni aniqlash;

"raqobat" va "sog'lom iqtisodiy raqobat madaniyati" tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini hamda o'zaro aloqadorligini asoslash;

sog'lom raqobat madaniyatini rivojlantirish muammolarini aniqlash, axloqiy asoslarini ilmiy dalillash;

sog'lom raqobat muhitida yoshlar innovatsion iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishning falsafiy asoslarini hamda innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'sirini tahlil qilish;

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishning asosiy tamoyillari, mexanizmlari va rivojlantirish imkoniyatlarini hamda innovatsion-texnologik asoslari ochib berish;

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning istiqbollari, ustuvor yo'nalishlari va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, tamoyillar, uning deterministik asoslari, institutsional mexanizmlar, innovatsion-texnologik vositalar tahlili tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik tahlil, sotsiologik so'rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"sog'lom iqtisodiy madaniyat" va "sog'lom raqobat muhiti" tushunchalarining qadriyatlarga tayanish, tartibga solinish, manfaat va mas'uliyat uyg'unligi kabi falsafiy-axloqiy, teng imkoniyatni ta'minlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga doir qarashlar asosida sog'lom raqobat madaniyatini mustahkamlovchi halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, javobgarlik, axloqiylik fazilatlarini hamda uni yemiruvchi kriminallik, yashirin

iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy chorasizlik kabi illatlarning falsafiy xususiyatlari ochib berilgan;

yoshlar iqtisodiy faolligining normativ-huquqiy mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlanish, ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida shakllanishi kabi institutsional, startap va tadbirkorlik tashabbuslariga yo'naltirilish, kreativ yondashuv asosida rivojlanish kabi innovatsion xususiyatlari hamda iqtisodiy nosog'lom muhitda utilitarizmning kuchayishi, halol mehnat qadriyatining susayishi kabi deformatsion o'zgarishi, jamiyat hayotida ishsizlik va norasmiy bandlikning ortishi yangi sifat o'zgarishlariga olib kelishi asoslab berilgan;

Yangi O'zbekistonda iqtisodiy raqobatni sog'lomlashtiruvchi raqobat madaniyatining o'zaro yordam, o'zaro hamkorlik, halollik, insoflilik, tejamkorlik kabi axloqiy mezonlari, mulkdorlar qatlamining tashabbuskorlik, manfaatdorlik, investitsion faollik kabi iqtisodiy, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamligi, qonuniylikka sodiqligi, ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirilganligi kabi siyosiy va ma'naviy barkamollik, mehnat etikasi, jamiyat manfaatiga daxldorlik kabi ma'naviy sohalaridagi xarakterli belgilari dalillangan;

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligining rivojlanishi va sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda milliy xarakterning mehnatsevarlik, jamoaviylik, mas'uliyatlilik kabi xususiyatlari, tadbirkorlikka moyillik, kasb-hunar an'analari kabi tarixiy-madaniy tajribasi va mahalla instituti, oilaviy tarbiya resurslari, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit singari potensial imkoniyatlari aniqlangan hamda shaxs erkinligi va huquqlarini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati asoslangan;

O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishga oid mas'uliyatni shakllantirish, halol raqobat tamoyillarini qaror toptirish kabi ijtimoiy-falsafiy, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish kabi institutsional va startap ekotizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar iborat:

O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning etnosotsial jihatlariga qaratilgan yangi g'oyalarni beruvchi, ilmiy-amaliy ishlanmalarni yaratuvchi, ularni amaliyotga tadbiq qiluvchi iqtidorli yoshlarni tarbiyalash zarurligi, yangi zamonaviy ilm fan yutuqlarini egallagan ishbilarmon yoshlarning aholining turmush farovonligini oshirishda va kambag'allikni qisqartirishda iqtisodiyotning birlamchi drayveri sifatida milliy identligimizni saqlab qolishi asoslangan;

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy tafakkuri, halol raqobat, innovatsion tashabbuskorlik, mas'uliyatli iqtisodiy xulq va sog'lom iqtisodiy madaniyatni targ'ib etishga xizmat qiluvchi etnosotsial jihatlar hamda yangi g'oyalarni beruvchi, ilmiy-amaliy ishlanmalarni yaratuvchi, ularni amaliyotga tadbiq qiluvchi iqtidorli yoshlarni tarbiyalash zarurati dalillangan;

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligi va sog'lom raqobat madaniyatini ochiqlik, shaffoflik va halollik tamoyillari asosida oshirishning

raqamli platformalar, startap ekotizimi, innovatsion ta'lim texnologiyalari kabi yo'nalishlari takomillashtirilgan;

yoshlar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari sifatida halol raqobat tamoyillarini mustahkamlash, iqtisodiy tafakkur va mas'uliyatni yuksaltirish, innovatsion tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli iqtisodiyotga mos ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim va tarbiya tizimida iqtisodiy madaniyatga oid mexanizmlarni takomillashtirish hamda yoshlarning iqtisodiy faolligini barqaror taraqqiyot mezonlari bilan uyg'unlashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalar, xulosalardan yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirish muammosini, tarixiy genezis omillaritsh, raqobat madaniyatining asoslari, kapitalistik munosabatlar sharoitida sog'lom raqobatni qaror toptirishning ziddiyatli jihatlari hamda innovatsion iqtisodiy muhitning yoshlar iqtisodiy xulqiga ta'sir mexanizmlarini tadqiq etishda, shuningdek, iqtisodiy madaniyat, raqobat etikasi va innovatsion taraqqiyot nazariyasini boyitishga, takomillashtirishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan amaliy tavsiyalar Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini takomillashtirish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, ta'lim tizimida sog'lom raqobat madaniyati va iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, shuningdek, mahalla, oila, fuqarolik jamiyati institutlari va tegishli davlat tashkilotlarining hududlarda yoshlarning iqtisodiy tashabbuskorligini rag'batlantirish, startap va biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash, raqamli iqtisodiyotga mos ko'nikmalarni shakllantirish, yoshlar o'rtasida halol muvaffaqiyat, teng imkoniyat va mas'uliyatli iqtisodiy xulq madaniyatini qaror toptirishga qaratilgan amaliy dasturlarni ishlab chiqish faoliyatida, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari, professional ta'lim tizimi va malaka oshirish kurslari uchun "iqtisodiy madaniyat", "halol raqobat etikasi", "yoshlar iqtisodiy faolligi", "innovatsion iqtisodiy tafakkur"ga oid maxsus kurslar, modullar va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning falsafiy asoslarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"sog'lom iqtisodiy madaniyat" va "sog'lom raqobat muhiti" tushunchalarining qadriyatlarga tayanish, tartibga solinish, manfaat va mas'uliyat uyg'unligi kabi

falsafiy-axloqiy, teng imkoniyatni ta'minlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga doir qarashlar asosida sog'lom raqobat madaniyatini mustahkamlovchi halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, javobgarlik, axloqiylik fazilatlarini hamda uni yemiruvchi kriminallik, yashirin iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy chorasizlik kabi illatlarning falsafiy xususiyatlariga doir xulosalar va tavsiyalardan O'zbekiston mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiyasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-37-son farmonida belgilangan vazifalar, tadbirkorlik faoliyatida o'zini-o'zi band qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni, "Hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish" dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiyasining 2025-yil 11-noyabrda 01-03/24-son ma'lumotnomasi). Natijada yoshlarda sog'lom iqtisodiy raqobat madaniyatini rivojlantirishning innovatsion-texnologik asoslari, istiqboldagi vazifalariga doir xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yoshlar iqtisodiy faolligining normativ-huquqiy mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlanish, ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida shakllanishi kabi institutsional, startap va tadbirkorlik tashabbuslariga yo'naltirilish, kreativ yondashuv asosida rivojlanish kabi innovatsion xususiyatlari hamda iqtisodiy nosog'lom muhitda utilitarizmning kuchayishi, halol mehnat qadriyatining susayishi kabi deformatsion o'zgarishi, jamiyat hayotida ishsizlik va norasmiy bandlikning ortishi yangi sifat o'zgarishlariga olib kelishiga oid ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 1-yarim yillik uchun ish rejasining 43-bandida keltirilgan "Yoshlarni kelgusida tegishli sohada malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari, shu jumladan tadbirkorlikka o'qitish uchun mamlakatimizda yuqori natijalarga erishgan soha mutaxassislarini jalb etgan holda bepul o'quv mashg'ulotlar o'tkazish" bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 22-oktyabrda 4-10-21-5727-son ma'lumotnomasi). Natijada Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini hamda uni amaliyotga tatbiq etishning samarador metodologiyasini ishlab chiqishga doir taklif va tavsiyalar bugungi kunda ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot faoliyatida foydalanish zaruratini asoslashga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda iqtisodiy raqobatni sog'lomlashtiruvchi raqobat madaniyatining o'zaro yordam, o'zaro hamkorlik, halollik, insoflilik, tejamkorlik kabi axloqiy mezonlari, mulkdorlar qatlamining tashabbuskorlik, manfaatdorlik, investitsion faollik kabi iqtisodiy, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamligi, qonuniylikka sodiqligi, ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirilganligi kabi siyosiy va ma'naviy barkamollik, mehnat etikasi, jamiyat manfaatiga daxldorlik kabi ma'naviy sohalaridagi xarakterli belgilariga doir ilmiy yangiliklar va xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqamli "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida nashr etilgan

ishlarda foydalanilgan. (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 23-yanvardagi 04/11-1485-son ma’lumotnomasi). Natijada yoshlarda sog‘lom iqtisodiy raqobat madaniyatini rivojlantirishning innovatsion-texnologik asoslari, istiqboldagi vazifalariga doir xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligining rivojlanishi va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishda milliy xarakterning mehnatsevarlik, jamoaviylik, mas’uliyatlilik kabi xususiyatlari, tadbirkorlikka moyillik, kasb-hunar an‘analari kabi tarixiy-madaniy tajribasi va mahalla instituti, oilaviy tarbiya resurslari, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit singari potensial imkoniyatlari aniqlangan hamda shaxs erkinligi va huquqlarini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy tavsiyalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2023-2025-yillarda efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24 ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 31-oktabrdagi 05-09-1714-son ma’lumotnomasi). Natijada, tayyorlangan media materiallar yoshlar orasida sog‘lom iqtisodiy raqobat madaniyatini targ‘ib etish, ularning iqtisodiy tafakkuri va tashabbuskorlik salohiyatini kuchaytirish, shuningdek, jamiyatda halol raqobat va mas’uliyatli iqtisodiy xulq haqidagi qarashlarni keng yoyishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog‘lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishga oid mas’uliyatni shakllantirish, halol raqobat tamoyillarini qaror toptirish kabi ijtimoiy-falsafiy, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish kabi institutsional va startap ekotizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan takliflar va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-88-sonli “O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotida tolerantlik tamoyilining tutgan o‘rni (qadimgi davrdan to hozirgi vaqtga qadar)” mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 23-yanvardagi 04/11-1482-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini ochiqlik, shaffoflik va halollik tamoyillari asosida rivojlantirish imkoniyatlari, iqtisodiy tolerantlikning turli ijtimoiy-tarixiy jarayonlardagi funksional ahamiyatini aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 34 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola (10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 230 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining 11 ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekt, predmet, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda “yoshlar iqtisodiy faolligi” tushunchasining ilmiy-konseptual asoslari va uni rivojlantirish zarurati, tarkibiy elementlari, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari hamda yoshlar iqtisodiy faolligiga oid qarashlarning tarixiy genezisi va rivojlanish omillari, iqtisodiy faollik haqidagi tasavvurlarning turli tarixiy bosqichlarda, ayniqsa Sharq va G‘arb ijtimoiy tafakkurida qanday shakllangani, mehnat, mulk, tashabbus, tadbirkorlik va raqobatga doir g‘oyalarning evolyutsiyasi tahlil etilgan.

Yoshlar iqtisodiy faolligi faqat bandlik, mehnat yoki daromad topish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning iqtisodiy tafakkuri, tashabbuskorligi, raqobatbardoshligi, mas‘uliyati, qadriyatlarga munosabati va jamiyatdagi faol ishtiroki bilan belgilanuvchi murakkab ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Iqtisodiy faollikni rivojlantirish zamonaviy jamiyatlarning o‘z oldidagi dolzarb muammolaridan biridir.

Dissertant fikricha, iqtisodiy faollik tushunchasi ichki tuzilishiga ko‘ra murakkab, poleginetik, polifunksional tuzilishga ega. Inson iqtisodiy faolligining quyi pog‘onadan yuqori pog‘onaga o‘tib o‘tishi (transformatsiyasi) turli bosqichlarni boshidan kechiradi. Insonning iqtisodiy faollikka ehtiyoji, avvalo, tafakkuridagi erkinlikka bog‘liq bo‘lib, uning manfaatlarini, faoliyatining maqsad va sabablarini shakllantiradi. Har bir jamiyatda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlari orqali namoyon bo‘ladigan manfaatlarining moddiy asosini mujassamlashtiradi. Inson iqtisodiy faolligining ichki funksional, motivatsion belgilari va ichki tuzilishini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) moddiy ehtiyojni qondirish maqsadi;
- 2) moddiy boylik yaratish va tabiiy muhitni o‘zgartirishga intilish motivi;
- 3) tabiiy omil va ijtimoiy omillarning passionar turtkilar;
- 4) jamiyatda farovonlikka intilish va kurashish instinktlari;
- 5) insonni “tejash”, “saqlash”, “ko‘paytirish” instinktlari kompleksida birinchi sarmoyani yaratish ijodkorligi;
- 6) jamiyatda ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi “sog‘lom raqobat” ruhimavjud bo‘lishi va raqobatbardoshlikning deterministik xususiyatlari (ruhiy, jismoniy, aqliy va ma’lumot-kasbiy xususiyatlar)ning shakllanishi;

7) iste'molchilik kayfiyatidan yaratuvchanlik sifatiga o'tish, o'z vaqtida (kommunal, mulkiy, daromad) soliqlarni to'lash singari axloqiy sifatlarining shakllanishi;

8) psixofiziologik, intellektual va kreativ sifatlarining bitta shaxsda mujassamlashishi;

9) moddiy-praksiologik, reproduktiv va demografik faoliyatini boshqarishga intilish motivi shakllanishi.

Dissertatsiyada iqtisodiy faoliyatning faollik darajasiga ko'tarilishi uzluksiz jarayon bo'lib, muayyan bosqichlardan iborat dialektik xususiyatlarni o'zida jamlashi qayd etilgan va uning quyidagi darajalari asoslangan. *Birinchidan*, quyi – liberal-tolerant darajasida insonning iqtisodiy nafaol xatti-harakati; *ikkinchidan*, o'rta – utilitar-pragmatik iqtisodiy faoliyat bo'lib, ishlab chiqarish, xo'jalik yuritishda shaxsiy manfaatlar darajasida cheklanib qolish; *uchinchidan*, iqtisodiy faoliyatning ratsional-konstruktiv darajasi nisbatan to'liq iqtisodiy faollikdir.

Inson iqtisodiy faolligining belgisi, avvalo, uning tafakkurida aks etib, o'zining manfaatdorligini, maxsus faoliyatining maqsad motivi va sabablarini shakllantiradi. Iqtisodiy faollikni jamiyatda vujudga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari orqali namoyon bo'ladigan manfaatlarining moddiy asosi tashkil etadi. Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar ularning faolligi motivi hisoblanadi. Demak, *birinchidan*, iqtisodiy faollik, avvalo, tafakkur erkinligining mahsuli bo'lib, u insonda moddiy va huquqiy shart-sharoitlarning adekvatligi sharoitida yuzaga keladi; *ikkinchidan*, inson iqtisodiy faolligi qadriyatlar olamidagi o'zgarishlar sifatida yuz bersa, qandaydir tor doiradagi utilitarizm, merkantilizm, konservatizmni o'zida aks ettirsa, bunday iqtisodiy faollik umuminsoniy qadriyatlarga o'z joyini bo'shatib beradi; *uchinchidan*, iqtisodiy faollik milliy g'oya, mafkura va qadriyatlar doirasida amalga oshirilsa, u oxir-oqibatda umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqasini uzib merkantilizmga olib keladi; *to'rtinchidan*, jamiyatda iqtisodiy faollik darajasini oshirish, mehnat qiluvchilarning aksariyat qismini haqiqiy mulkdorlar sinfiga aylantirishga intilish zarur; *beshinchidan*, iqtisodiy faol kishilarni ko'paytirish, yoshlarning faolligi dinamikasini rivojlantirish uchun ishlab chiqarish jarayonida mehnatga adolatli haq to'lash, xalqaro iste'mol savatchasi talabidan kelib chiqib joriy etilishi, shuningdek, ularning jamoaviy va xususiy mehnat faoliyati sohasiga ulushini qo'shish orqali ishtirokini faollashtirish, rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish davlatning bosh islohotchilik rolini qay darajada bajarishiga bog'liqdir.

Iqtisodiy tafakkur qismlarining uyg'unligini ta'minlashda ijodkorlik va bir tizimga solinganlik asosida amalga oshadi. Bu tamoyillar texnologik yangilanishlarga sababchi bo'ladi, insonning iqtisodiy hayot jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Jumladan:

- halollikni o'ziga kasb qilish, ish yuritishda asosiy shiorga aylantirish;
- firibgarlik, tovlamachilik, g'irromlik va aldamchilikka moyil bo'lmaslik;
- birovlarining ishonchini qozonishga erishish, obro'ga ega bo'lish;
- mehnatga halol munosabat, inson amaliy faoliyatining oliy darajasidagi tamoyil bo'lib, bu ish vaqti doirasi bilan cheklanmagan, nafaqat ishni bajargan

kishining o'zi, balki davlat, jamiyat, xalq, millat manfaatlari yo'lida qilingan harakatdan iboratdir.

Dissertatsiyada tadbirkorlik va ishbilarmonlikni o'zida mujassamlashtirgan iqtisodiy faol insonda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo'lishi kerakligi ta'kidlangan: *birinchidan*, real vaziyatni to'g'ri baholay bilishi, ya'ni talab va taklifni birinchi bo'lib his qilishi; *ikkinchidan*, o'zi shug'ullanayotgan sohada yetarli bilim, malaka va boy tajribaga ega bo'lishi; *uchinchidan*, bozor etiketi, mijozlar bilan muomala madaniyatini egallaganligi; *to'rtinchidan*, ishonarli sheriklar tanlay bilish, odamshunos bo'lishi; *beshinchidan*, qo'rqmasdan tavakkal ishga qo'l urishi, tavakkal qilayotganda ham tajribaga suyanish.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini ijtimoiy yo'naltirish muammosi xalqaro iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtiruvchi hujjatlar asosida reglamentlashtiriladi. Lekin bozor subyektlari manfaatlari xilma-xilligi bu jarayonni boshqarishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Buning yechimini topish uchun xalqaro iqtisodiy munosabatlarni: tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning global tizimini yaratish tamoyillarini, zamon talablariga ko'ra qayta ko'rib chiqish va mavjudlarini takomillashtirish muammosi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Insonparvarlashtirish – bozor munosabatlari tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, uning militarizatsiyalashib borish tendensiyasi namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda qurol-yaroq savdosi (ayniqsa, xufiya bozorda), uning salmog'i doimiy oshib bormoqda.

2. Demokratlashtirish – bozor munosabatlarini umuminsoniyat manfaatlariga mos ravishda boshqarish, uning demokratik tamoyillarini mukammallashtirishni, ya'ni xalqaro demokratiyalashtirish institutlarifaoliyatini kengaytirishni taqozo qiladi.

3. Ochiqlik – dunyo bozorining mamlakatlararo taqsimlanishi natijasida, ular barcha davlatlar uchun, hamma vaqt ochiq bo'lmagan, Zero, dunyoda bo'layotgan turli darajadagi to'qnashuvlar, urushlarning lokal sababi ham bozor sub'ektlarining o'rin talashib sodir etayotganligi buni isbotlaydi.

4. Tolerantlik – gumanizm tamoyilining umuminsoniyat qadriyatiga aylanishi bilan, bozor munosabatlarida bag'rikenglikni ustuvor ma'naviy-axloqiy normaga aylantirmoqda. Zero, bu tamoyil dunyodagi barqaror iqtisodiy taraqqiyot shartiga aylandi.

5. Sog'lom raqobat – har qanday bozorda raqobat, uning atributiga aylanib, qonuniy-huquqiy asoslarga, axloqiy normalarga, gumanistik tamoyillarga asoslanib tashkillashtirilishi, jamiyat taraqqiyotini barqarorlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi.

6. O'zaro yordam – bozor raqobat maydoni bo'lsa ham, hamma vaqt «yovvoyi raqobat» jamoatchilik tomonidan salbiy hodisa sifatida baholangan, lekin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida o'zaro yordam imkoniyatlari qidirilgan.

7. Hamkorlik – bozorning ijtimoiy munosabatlarni mujassamlashtiruvchi funksiyasi, bozor sub'ektlari hamkorligini ob'ektiv rivojlanish qonuniyatiga aylantirgan. Chunki axborotlashgan jamiyat shu tamoyilga asoslanadi.

8. Adekvatlik – bozor munosabatlari jamiyat taraqqiyotiga mos bo‘lishdan tashqari, uning rivojlanish darajasini ham belgilaydi. Lekin bozor munosabatlarining jamiyat strukturaviy elementi sifatida, unga adekvatligi ichki ziddiyatlarini istisno qilmaydi.

9. Korporativlik – iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuv xususiyalari, uning individual yo‘nalishlarini muayyan manfaatlarga ko‘ra integratsiyalashtirishni taqozo qiladi. Bu zaruriyat bozor iqtisodiyoti sub’ektlarining korporativ ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tadqiqotda *“iqtisodiy faollik –insonning tafakkur erkinligi natijasida jamiyatdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi faoliyatida o‘z-o‘zini tashkillashtira olishi, o‘zida ilm-salohiyatni mujassamlashtirgan insonning yaratuvchanlik, ishbilarmonlik faoliyatidagi tashkiliy, innovatsion va iqtisodiy xatti-harakatining maqsadga muvofiq ratsional-konstruktiv yo‘naltirilishidir”*, - deb ta’riflangan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, iqtisodiy faoliyatning ichki funksional tuzilishi iqtisodiy faoliyat subyekti, iqtisodiy faoliyat yo‘naltirilgan obyektidan iborat. Faollik ijtimoiy, tarixiy jihatdan immanent rivojlangan individning intensiv va ekstensiv kurashish layoqati, insonning o‘z-o‘zini modellashtirishi va shaxs faoliyatini tartibga keltirilganlik belgisidir. Yoshlar iqtisodiy faolligi ko‘p jihatdan institutsional muhitga bog‘liq. Davlat siyosati, ta’lim tizimi, mehnat bozori, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yoshlarning iqtisodiy faoliyatga kirib kelish darajasini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Yoshlar iqtisodiy faolligiga oid qarashlar tarixiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi, ishlab chiqarish usullari va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib kelgan. Yoshlar iqtisodiy faolligiga oid qarashlar insonning mohiyati, uning jamiyatdagi o‘rni va mehnatga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi falsafiy-antropologik yondashuvlarga tayanadi. Tarixan iqtisodiy faol inson obrazi turli falsafiy maktablarda turlicha talqin qilingan: ba’zilarida u manfaat orttirishga intiluvchi subyekt sifatida, boshqalarida esa ijtimoiy mas’uliyatli, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi shaxs sifatida ko‘rilgan. Zamonaviy qarashlarda yoshlarning iqtisodiy faolligi individual manfaat va ijtimoiy foydaning uyg‘unligi sifatida talqin etilmoqda.

Yoshlar iqtisodiy faolligining shakllanishi va rivojlanishida milliy madaniyat, an’analar va axloqiy qadriyatlar muhim determinant omillar hisoblanadi. Har bir jamiyatda yoshlarning iqtisodiy faoliyatga munosabati o‘sha jamiyatning mehnatga, boylikka, halollikka va tadbirkorlikka bo‘lgan qarashlari bilan belgilanadi. Halollik, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lgan muhitda yoshlar iqtisodiy faolligi sog‘lom va barqaror rivojlanadi.

Dissertatsiyaning **“Sog‘lom raqobat madaniyati – yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantiruvchi omil sifatida”** deb nomlangan ikkinchi bobida “raqobat” va “sog‘lom iqtisodiy raqobat madaniyati” tushunchalarining mazmuni, ilmiy-konseptual asoslari, kapitalistik munosabatlar sharoitida sog‘lom raqobat madaniyatini rivojlantirish muammolari va yoshlarning iqtisodiy faolligini kuchaytiruvchi ma’naviy-ijtimoiy omillar asoslab berilgan.

Dissertant fikricha, *raqobat deb tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan tirik mavjudotlarning yashash jarayonida ustunlikni qo'lga kiritish uchun tortishish, bellashish, musobaqalashish, munozaralashish kabi kurashuvchanlik faoliyatlaridan iborat bo'lgan xatti-harakatlarining muayyan tizimiga aytiladi*. Raqobat tushunchasiga berilgan ushbu falsafiy ta'rif, uning ontologik tabiatga ega bo'lgan hodisa ekanligini o'zida aks ettirgan holda: *birinchidan*, raqobatning nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki, tabiat va jamiyatning barcha sohalariga daxldor bo'lgan obyektiv fenomen; *ikkinchidan*, raqobat o'z manbai, mazmuni jihatidan obyektiv, shakl jihatidan esa subyektiv bo'lgan, moddiylik va ma'naviylikni o'zaro bog'lab, ularni harakatga keltiruvchi omil; *uchinchidan*, raqobat insonning bilish jarayonlarida munozara, bahs, bellashuv shakllarida o'zligini namoyon qilishi tufayli ilmiy bilishda metodologiya; *to'rtinchidan*, raqobat ijtimoiy hayotning barcha sohalariga daxldor bo'lganligi sababli tushunchalarni integratsiyalovchi vosita sifatida o'zligini namoyon qiladi.

Iqtisodiy raqobatni shaxs iqtisodiy faoliyat yuritish doirasiga qarab tarmoqlar ichidagi va tarmoqlar o'rtasidagi raqobatga ajratish mumkin. Bunda tarmoqlar ichidagi raqobat – muayyan tarmoqdagi bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida o'z tovarlarini qulayroq sharoitda sotish va shunga yarasha ko'proq daromad olish uchun bo'ladigan kurashi bo'lsa, tarmoqlar o'rtasidagi raqobat esa ko'proq foyda beradigan tarmoqlarga kapital qo'yish uchun tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bo'ladigan kurashidir⁸. Shunga ko'ra sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshirishning axloqiy prinsiplari deb kishilarning axloqiy ongida ishlab chiqilgan, ularning ma'naviyatiga, burchiga, hayotining mazmuniga qo'yiladigan talablarning tabiatiga mos kelgan holda raqobatlashuvchilar faoliyatining umumiy yo'nalishlarini ko'rsatib beradigan va muayyan xulq-atvor normalariga asos bulib xizmat qiladigan prinsiplarga aytiladi. Demak, iqtisodiy raqobatni tashkil etishdagi bunday salbiy holatlarni, faqat qonun kuchi yo'li bilan jazolash emas, balki umuminsoniy axloq prinsip va normalarni, milliy qadriyatlar tizimini ishga tushurish orqali tugatish va shu asosda sog'lom raqobat muhitini yaratish mumkin.

Tadqiqotda sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshirishning *axloqiy prinsiplari* – insonparvarlik, vatanparvarlik, jamoatchilik omillari keltirilgan va quyidagicha asoslangan:

1. *Insonparvarlik* prinsipi – bu raqobatchilarning odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash asosida ularning mulkiy daxlsizlik haq-huquqlarini hurmat qilish, baxt-saodati, har tomonlama kamol topishi hamda ijtimoiy hayotda inson uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tuyg'ular, qarashlar majmui hisoblanadi.

2. *Vatanparvarlik* prinsipi – bu bellashuvlarda g'oliblikni qo'lga kiritib, o'zi yashab turgan zaminga bo'lgan mehr-muhabbat va sadoqatini amalda namoyon qilishlari demakdir. Uning mazmuni: moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, iste'mol va ayirboshlash jarayonida yuz beradigan raqobatni faqat xalqning ravnaqini ko'zlab amalga oshirish; xalqi tomonidan yaratilgan moddiy va

⁸ Akbarov J. Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish – tezkor iqtisodiy o'sishning kaliti // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, iyun. – B.17-24

ma'naviy qiymatga ega bo'lgan tovarlarni jahon bozorlaridagi raqobatga bardosh beradigan qilib ishlab chiqarish; xoriждан jahon bozoriga olib chiqilgan tovarlarni kamsitmasdan, o'z davlatida ishlab chiqarilgan tovarlarning sifat va miqdor ko'rsatkichlari orqali ulardan ustun ekanligini ta'minlash borasida g'oliblikka erishish bilan ifodalanadi.

3. O'zbekistonda sog'lom raqobatni amalga oshirishning axloqiy prinsiplaridan yana birini *jamoachilik* tashkil etadi. Shaxs o'zgalardan ajralgan holda yashamaydi. U, albatta, boshqalar bilan hamkorlik qilib, jamoa bo'lib yashaydi va mehnat qiladi. Jamoa bo'lib yashash – insonlarga xos xususiyatlardan biri. Bu xususiyat asosida o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik yotadi. Binobarin, iqtisodiy raqobatda muayyan maqsadni ko'zlagan, ehtiyoj va manfaatlardan kelib chiqqan holda o'zaro yordam va hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatish sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshirishdagi jamoachilik prinsipining asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotda sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshirishda qo'llaniladigan *axloqiy normalar* tahlil etilgan quyidagicha etib belgilangan: xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, rostgo'ylik, ochiqko'ngillik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylik, sipolik.

Dissertant fikricha, sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshirishda qo'llaniladigan barcha axloqiy normalar o'z navbatida sobitqadamlik bilan ish yuritishni talab qiladi. Raqobatlashuvchi sub'ektlarning sobitqadamligi, ularning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishlari uchun ishga jiddiy kirishishlari, xatti-harakatlaridan iboratdir. Shunga ko'ra, sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshiruvchi subyektlarning sobitqadamligi: o'zining xulq-atvoridagi holatini ongli tarzda himoya qilishida; qiladigan ishi va intilishlariga to'la ishonchini ifodalashida; tasodifiy motivlarga berilib ketmasligida; xafa bo'lish hissiga, qaysarlikka, oshnaog'aynigarchilik andishalariga berilmasligida; o'zga raqobatchilardagi jiddiy nuqsonlarga, xiyonatkorliklarga befarq qarab turolmasliklarida; raqobatdagi muttahamlik, firibgarlikni fosh qilishdagi harakatlarida ko'rinadi.

O'zbekistonda sog'lom iqtisodiy raqobatni rivojlantirish, uni jahonda kechayotgan nosog'lom, shafqatsiz, insofsiz raqobat ta'siriga tushirmaslik masalasi *birinchi* navbatda, mavjud jamiyatning axloqiy hayotiga, xususan unda amal qiladigan axloqiy qonun-qoida, norma va tamoyillarga; *ikkinchidan*, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning qanday darajada uyg'unlashganligiga; *uchinchidan*, xalqlar va davlatlar o'rtasida axloqiy-ma'naviy integratsiya jarayonlarining qanday tarzda kechayotganligiga bog'liqdir.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, raqobat tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan tirik mavjudotlarning yashash jarayonida ustunlikni qo'lga kiritish uchun tortishish, bellashish, musobaqalashish, munozaralashish kabi kurashuvchanlik faoliyatlaridan iborat bo'lib, u tufayli jamiyat hayotining barcha sohalarida kishilarning bir-birlari bilan moslashuviga, moddiy va ma'naviy faoliyatlarining esa lokal va global, gorizontal va vertikal tarzda integratsiya va diversifikatsiyalashuvining tobora kengayib borishiga olib keladi. Sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshirishda raqobatchi subyektlarning sabr-qanoatli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom iqtisodiy raqobatni amalga oshirishdagi sabr-qanoat: raqobatchining ishi yurishmay qolganida, tushkunlikka tushmasligida; raqobat tufayli sinib qolganida,

unga chidashi, toqat qilishida; raqobat tufayli kelib chiqqan ko'ngilsiz narsa va voqealarni bartaraf etish chora-tadbirlarini chidam bilan izlashlarida namoyon bo'ladi. Kapitalistik munosabatlar sharoitida sog'lom raqobatning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki jamiyatning axloqiy barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Sog'lom raqobat madaniyati, birinchi navbatda, shaxsning adolat, halollik, mas'uliyat va mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlariga asoslanadi. Bu madaniyat, raqobatning faqat moliyaviy yoki texnologik jihatlariga qaratilgan yondashuvdan farqli ravishda, insonlarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishini, o'zini va boshqalarni qadrlashni targ'ib qiladi. Shu bilan birga, axloqiy jihatdan shakllangan raqobat muhitida, shaxslar o'z manfaatlarini jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishni o'rganadilar, bu esa iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni birgalikda rivojlantirish imkonini yaratadi.

Sog'lom raqobat muhitida yoshlar innovatsion iqtisodiy tafakkuri yoshlarni yangi g'oyalar yaratishga, amaliy tajriba asosida qaror qabul qilishga va iqtisodiy jarayonlarda samarali ishtirok etishga undaydi. Innovatsion tafakkur o'zida ijodkorlik, mas'uliyat va kelajakni oldindan ko'ra bilish kabi fazilatlarni birlashtiradi. Shu bilan birga, yoshlar innovatsion tafakkurini rivojlantirish, ularni tanqidiy fikrlash va ijodiy yechimlar qidirishga rag'batlantiradi. Bu ikki jarayon birlashganda, jamiyatda nafaqat iqtisodiy raqobat kuchayadi, balki shaxslar o'rtasida o'zaro hurmat, ijtimoiy hamkorlik va axloqiy majburiyat hissi ham mustahkamlanadi.

Dissertatsiyaning **“Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning deterministik asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobida yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati negizida rivojlantirishni ta'minlovchi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, ularning ijtimoiy-falsafiy mazmuni hamda o'zaro ta'sir mexanizmlari, innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri hamda yoshlar iqtisodiy faolligini oshirish tamoyillari va rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Hayotga yangicha qarash, iqtisodiy islohotlar eskalatsiyasi ta'sirida yoshlar orasida individual iqtisodiy faollik keng tarqalib ulgurgan. Yoshlarning iqtisodiyot sohasidagi faolligi ularning bozor iqtisodiyotini to'liq moslashuvi bilan bog'liqdir. Bu boradagi natija yoshlarning bandligi masalasi bilan belgilanadi. Bozor munosabatlari yoshlarning faolligini yanada oshirishga xizmat qilishi va unda biror mayda narsani sotish evaziga pul topish singari iste'molchilik kayfiyatini shakllantirmay, balki jamiyatni yangi modernizatsiyalashgan ishlab chiqarishiga birlashib, zamonaviy bozor infrastrukturasini yaratishga sharoitlar hozirlashi kerak.

Tadqiqotchi fikricha, yoshlar iqtisodiy faolligining axloqiy immanent xususiyatlarini o'rganmasdan turib natijaga erishish qiyin. Axloqiy qadriyatlar yoshlarning motivatsiyasining aks etishi, iqtisodiy faoliyatda boshqaruvchanlik xarakteridagi kuchli vositadir. Axloqiy me'yorlar, mezonlar va qadriyatlarning birdan bir vazifasi mavjud ijtimoiy institutlarning barqarorligini ta'minlash, yangi paydo bo'luvchi axloqiy, iqtisodiy qadriyatlarni moslashtirishdir. Iqtisodiy sohada erkinlik berilishi, tadbirkorlik, ishbilarmonlik davlat himoyasida bo'lishi, uning huquqiy-me'yoriy bazasi, o'z navbatida, axloqiy, madaniy qadriyatlarni

o'zgarishiga kuchli impuls berishi tabiiydir. Fikrning o'zgarishi, qarashlarni transformatsiyaga uchrash holati avvalo yoshlarda namoyon bo'lmoqda.

Raqobat – o'rnini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan axloqiy qadriyatlarni boshqaruvchi, rivojlantiruvchi rag'batdir. Raqobatning ontologik va gnoseologik tabiati to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borgan Sh.Negmatovanning fikricha, “raqobat to'g'risidagi qarashlarni mantiqiy umumlashtirilsa, u holda mazkur tushuncha uch xil talqin qilinganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Birinchisi, raqobatni muomala nuqtai nazardan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat bu xaridorlarning o'z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun ko'proq pul topish uchun kurashishdir. Ikkinchisi, strukturaviy jihatdan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat –bozorda yaratilgan shart-sharoitlar tufayli sotuvchi va xaridorning unda erkin harakat qilish darajasidir. Uchinchisi, raqobatni funksional jihatdan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat – eski bilan yangi, innovatsiyalar o'rtasida bellashuv bo'lib, yashiringan narsalarning ko'zga tashlanib aniq bo'lib qolishdir”⁹. Yuqoridagi tahlillardan ma'lumki, tadbirkor bo'lish, ishbilarmon bo'lish va umuman, faol inson bo'lish o'tmish axloqiy tafakkurda mavjud bo'lib, yoshlarning iqtisodiy faol inson bo'lishida dinamik kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada yoshlar iqtisodiy faolligini oshiruvchi *obyektiv va subyektiv omillar* asoslab berilgan. Obyektiv omilga davlat organlari qabul qiladigan me'yoriy hujjatlar, ularga rioya qilish bo'yicha mamlakatda o'rnatilgan nazorat, shuningdek, turli jamoat tashkilotlari faoliyati kiradi. Davlat tomonidan qonunlar bajarilishi ustidan o'rnatilgan nazorat, bir tomondan, qonunlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, fuqarolarda ularni ixtiyoriy ravishda bajarish maqsadga muvofiqligi tushunchasining shakllanishiga yordam beradi. Yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishning subyektiv omillari quyidagilardir: ilmiy-texnik, texnologik taraqqiyot; mehnatni ilmiy asosda tashkil etish; mehnatni me'yorlash va rag'batlantirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yangi texnologiyalarni qo'llash; Yoshlarning muvaffaqiyati va o'tish davrining yutuqlari o'zaro bog'liqdir. Yangi iqtisodiy muhit yaratgan imkoniyatlar yoshlarga xos bo'lgan tashabbuskorlik, ijodkorlik va moslashuvchanlikka ko'maklashadi. Biroq oldingi avlod bilmagan xavflar ham mavjuddir. Bular: tengsizlikning chuqurlashib borishi, ishsizlik, giyohvandlik va boshqalar. Boshqacha aytganda, endilikda o'tish davri yoshlar oldida ulkan imkoniyatlar ochibgina qolmasdan, balki o'zi bilan har xil murakkabliklarni ham olib kelmoqda.

Hozirgi davrda yoshlarning iqtisodiy faolligini yangicha o'lchovi hududlar kesimida “innovatsion faollik” tushunchasi bilan belgilanmog'i kerak. Chunki innovatsiya iqtisodiy faollikning estetik xususiyatlarini takomillashtiradi, mehnat sharoitlari, ish bilan bandlikni axborot makoni, ishlab chiqaruvchiestetik didining takomillashganligini bildiradi. Innovatsion faollik yuqori, o'rtacha, past darajada bo'lgan hududlarni klassifikatsiya qilish orqali “innovatsion attraktorlar”ni aniqlash mumkin. Bandlik darajasi faollikningdastlabki belgisi ekan, endigi mehnat bozori innovatsiyalarga yo'naltirilgan, iqtidorli yoshlarni jalb qiluvchi o'ziga xos markazlarga, “o'sish qutblari”ga, taraqqiyotning innovatsion yo'li “estetik

⁹ Негматова Ш. Рақобатнинг онтологик табиати ва гносеологик хусусиятлари // Имом Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2017. -№1. – Б.92.

substansiyasi”ga aylanadi. Innovatsion markazlarda yoshlar iqtisodiy faolligining yangi shakllari va yanada samarali mehnat amaliyoti rivoj topadi, mikro va makroiqtisodiy bog‘liqliklar yaqqolroq ifodalanadi, personal tayyorlash va ta’limni oshiruvchi innovatsion faol tashkilotlar soni ko‘proq bo‘ladi.

Iqtisodiy faollik samaradorlikka erishish, mahsulotlarning zamonaviy texnikaviy-iqtisodiy, shu bilan birga, axloqiy talablarga javob berishi, estetik ehtiyojlarni qondirishi, xullas, iste’molchi madaniyati shakllanishidagi o‘rniga katta e’tibor qaratilmoqda. Tabiiyki, bunga professional tayyorgarliksiz, g‘oyaviy-tarbiyaviy, estetik, shuningdek, umummadaniy saviyasiz erishib bo‘lmaydi. Yoshlarlar faoliyatida tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, fikr erkinligini ifodalay olishi, obyektiv shart-sharoitlar yuzaga kelgan hozirgi sharoitda estetik asos mehnat, xulq-atvor, turmush, ma’naviy munosabatlarning butun tizimiga tobora chuqur kirib bormoqda. Bular estetik omillarning har bir fuqaro hayotiy faoliyatini, ijodiy salohiyatini yuksaltirishdagi ijtimoiy ahamiyatidan dalolat beradi.

Tadqiqotchi fikricha, yoshlarga iqtisodiy imkoniyatlar berishda bu ilmiy asoslangan bosqichlarni inobatga olish, shu asoslar bo‘yicha yoshlarni faollashtirish – mavjud iqtisodiy tanglik (ishsizlik, loqaydlik, jinoyatchilik) oqibatlarini, kelajakda ijtimoiy muammolar sabablarini bartaraf qilishning yangi usul, vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, beg‘ubor, shijoatli yoshlarni jamiyatga katta foyda keltiruvchi potensialga aylantirish g‘oyat katta axloqiy-estetik ahamiyatga ega. Ya’ni yoshlarni destruktiv g‘oyalardan saqlash va ularni konstruktiv, pragmatik insonlar qilib voyaga yetkazish, iqtisodiy faollik ezgulikka yo‘l ekanligini, uni yanada rivojlantirish hayot asoslarini ta’minlash zaruriyati bilan bog‘liqligini anglashiga, vatanparvarlik hissini, tuyg‘usini tarbiyalashga, iqtisodiy hayotning gedonistik va evdomonistik ahamiyati oshib borayotganini tushunishga olib kelmoqda. *Birinchidan*, yoshlarning iqtisodiy faolligini rivojlantirish qonuniy himoyalangan, axloqiy qadriyatlar bilan mutanosiblashgan, istiqboldagi innovatsion faollikni yuzaga keltiradigan “biznes inkubator” vazifasini bajaradiigan, usul-vositalarini o‘zida jamlagan jarayondir; *ikkinchidan*, yoshlarning faollashuvi iqtisodiy faollashishning elementar shakllaridan boshlanib, innovatsion faollik darajasiga ko‘tariladigan dinamik jarayon bo‘lib, axloqiy imperativlar va ishlab chiqarishning estetiklashtirish usul-vositalarini istiqboldagi praksiologik, innovatsion amaliyotidir; *uchinchidan*, yoshlar iqtisodiy faolligini ilmiy tahlil qilish, uni ma’lum tamoyillar, qonuniyatlarga bo‘ysunadigan, bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqadigan jarayon sifatida metodologik tavsiflash yoshlar iqtisodiy faollashishini axloqiylashtirish va estetiklashtirish imkoniyatini beradi; *to‘rtinchidan*, yoshlar iqtisodiy faolligini axloqiylashtirish istiqboli ularni zamonaviy ehtiyoj, manfaatlariga, milliy iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, jamiyatdagi axloqiy imperativlarning ko‘lamiga va davlatning qonun ustuvorligi tamoyiliga mutanosib ravishda bog‘liq bo‘ladi. Yoshlarni iqtisodiy faollashtirish zamirida korrupsiya, ta’magirlik, davlat byudjetiga, xalqning mulkiga xiyonat qilish illatlari bartaraf etilib, millatparvarlik, vatanparvarlik singari axloqiy tamoyillarning ustuvorligi ta’minlanadi.

Dissertatsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va bozor iqtisodiyotining qaror topishi yoshlarda o‘zbekona tadbirkorlik, faollik, Vatanga cheksiz muhabbat, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymay, har narsani tejash kabi axloqiy

fazilatlarni jamlaydi va jamiyat iqtisodiyotini mustahkamlab, xalqning farovon yashashini kafolatlashi qayd etilgan. Yoshlar iqtisodiy faolligini fan, ta'lim va ishlab chiqarish birligida uyg'unlashtirish, texnika, texnologiya va intellektual sohadagi salohiyatini rivojlantirishning intensivlashtirish, iqtisodiy ta'lim sohasidagi kommunikatsiya va infrastrukturasini kuchaytirishga bog'liq. Yoshlarning iqtisodiy faollashishiga bo'lgan intilishi va motivatsiyasini, tezda mulkka, boylikka bo'lgan intilishlarini rag'batlantiradigan tizim faoliyatini reglamentlovchi, muvofiqlashtiruvchi me'yoriy-huquqiy bazasini, axloqiy-estetik normalarning vujudga kelishi hozirgi davr qonuniyatidir. O'zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiy rivojlanish darajasini, o'zbek millatining ijtimoiy-tarixiy shakllangan an'analarini, mentalitetini e'tiborga olgan holda yoshlarni iqtisodiy faollashtiruvchi manbalarini aniqlash bu sohadagi iqtisodiy samaradorligini belgilaydi. Mavjud iqtisodiy imkoniyatlar va vositalarni, jamoatchilik nazoratini globallashtirish davrida erkin iqtisodiyot tufayli yuzaga keluvchi inqiroz, tanazul prognozlarini ilmiy-nazariy tahlil qilish, yoshlar doirasida estetik, etikologik inqirozlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish asosiy vazifa bo'lmog'i lozim.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, yoshlar iqtisodiy ongini faollashtiruvchi immanent belgilaridan biri bu boylik orttirish va foyda ko'rishdan iborat. Yoshlar tadbirkorlik subyekti sifatida imkon qadar erkin bo'lishi, xo'jalik yuritish faoliyatini davlatning ommaviy-imperativ ta'sirlaridan xoli bo'lgan holda amalga oshirishdan manfaatdor bo'ladi. Sog'lom raqobat muhitida yoshlar o'z faoliyatini halollik, adolat, mas'uliyat kabi qadriyatlar asosida tashkil etishga intiladi. Bu esa ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilishida nafaqat utilitar manfaatlar, balki ijtimoiy foyda va umumiy farovonlikni ham hisobga olishiga olib keladi. Innovatsion iqtisodiy raqobat muhiti yoshlarni yangicha fikrlashga, kreativ yondashuvlarni qo'llashga va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga undaydi. Shu bilan birga, innovatsion raqobat muhiti yoshlar ongida tavakkalchilik, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradi, bu esa ularning iqtisodiy faolligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishda ochiqlik, shaffoflik va halollik tamoyillari muhim institutsional asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyillar iqtisodiy jarayonlarda ishonch muhitini shakllantirib, yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etilishiga zamin yaratadi. Shaffoflik korrupsiya va noqonuniy faoliyatning oldini olish orqali sog'lom raqobatni ta'minlasa, ochiqlik iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanish sharoitini yaratadi. Halollik esa iqtisodiy munosabatlarda barqarorlik va uzoq muddatli hamkorlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida yoshlarda sog'lom iqtisodiy raqobat madaniyatini rivojlantirishdning innovatsion-texnologik asoslari hamda Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy mexanizmlari va strategik istiqbollari raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari, intellektual platformalar, startap ekotizimi, sifatli ta'lim va innovatsion infratuzilma bilan shartlangan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan innovatsion-texnologik taraqqiyot yoshlar iqtisodiy faolligini faqat texnik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi vosita emas, balki ularda yangicha iqtisodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, bozor o'zgarishlariga moslashish, intellektual mehnatga intilish va halol raqobat muhitida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy omil sifatida baholanadi.

Tadqiqotda yoshlarni iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etish, ularning innovatsion salohiyatini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik madaniyatini mustahkamlash, halol raqobat tamoyillarini ijtimoiy ongga singdirish, iqtisodiy faollikni fuqarolik mas'uliyati va milliy taraqqiyot maqsadlari bilan uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada sog'lom raqobat madaniyatiga asoslangan yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirish Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiyasi, inson kapitali sifatini oshirish, innovatsion jamiyatni shakllantirish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti ekani nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Dissertant fikricha, tadbirkorlikning rivojlanishiga faqat iqtisodiy tafakkur va innovatsion izlanishlar hal qiluvchi ta'sir etadi, deyish murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yetarlicha bilmaslikdir. Ijtimoiy-iqtisodiy va etnosotsial rivojlanishda davlatning iqtisodiy siyosati, strategik maqsadlari va etnosotsial xususiyatlarni hisobga olish muhim rol o'ynaydi. Innovatsion izlanishlarning iqtisodiy tafakkur bilan uzviy bog'liqligidan kelib chiqqan holda aytish zarurki, ularning tadbirkorlikka ta'siri tadbirkorning iqtisodiy manfaatlari, iqtisodiy huquq va erkinliklari, bozor munosabatlariga xos bo'lgan raqobat sharoitida foyda ko'rishga, faoliyatini kengaytirishga bo'lgan intilishlarida aks etadi. Aslida "iqtisod" tushunchasi ostida tejash ma'nosi yotganligi bois tejamkorlik iqtisodiy faoliyatning tub mohiyatidan kelib chiqadi. Ikkinchi tomondan, tejamkorlik hayotning hamma sohasi uchun zarur va muhimdir. Ishlab chiqarishda tejamkorlik intensivlashtirish sohasiga kiradi, kam xarajat bilan ko'p va sifatli mahsulot ishlab chiqarish, yuqori foydaga erishish, ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish uchun real imkoniyatning vujudga kelishi tejamkorlik mazmunini tashkil etadi. Tejamkorlik, bir tomondan, ishlab chiqaruvchilarning kasb mahoratlari, iqtisodiy mas'uliyati, bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy tafakkuri rivojlangani bilan, boshqa tomondan, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan ilg'or texnologiya bilan bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, agar har bir kishi ko'proq jamg'arishga harakat qilsa, muomaladagi pullar kamayadi va ular kamroq jamg'arma hosil qiladi.

Tadqiqotda tejamkorlik ikki yo'nalishda – bor narsalardan tejab-tergab foydalanish, ikkinchisi esa ortiqcha xarajatlarga erk bermaslik, eng zarur ehtiyojlarni o'rtacha darajada qondirish bilan chegaralanish ma'nosida tahlil etilgan. Iqtisodiy madaniyatning amaliy tushunchasi bo'lmish tejamkorlik malakalarini shakllantirishda iqtisodiy tushunchalar va tamoyillarni o'zlashtirish muhim o'rin tutadi. Bu ishlab chiqarish sohasi uchun, ayniqsa juda zarurdir. Hozirgi zamon ishchisi butun korxonaning iqtisodiy ahvolidan, uning kechagi, buguni, ertasidan, umuman, taraqqiyotning iqtisodiy tushuncha va tamoyillaridan ham yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Iqtisodiy tafakkur rivojida bu holat muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy madaniyatning asosini shaxsiy ehtiyojlarni qondirish odobi tashkil etadi. Bunday odobni har bir insonda qaror toptirish hozirgi kunda o'ta muhim va dolzarb ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy vazifadir. Unga amal qilmaslik oqibatida iqtisodiy manfaatlar va ehtiyojlarni qondirish sohasida nafaqat ma'naviy-axloqiy og'riq nuqtalar, va, hattoki, jinoiy ishlar ko'zga tashlanmoqdaki, ular shaxs va jamiyat ma'naviy madaniyatiga o'ta buzg'uncha ta'sir ko'rsatadi. Bular – ta'magirlik, poraxo'rlik, moddiy boyliklarni o'zlashtirish, iqtisodiy qonunlarga rioya qilmaslik, soliq siyosatini mensimaslik, shaxsiy manfaatni xalq va jamiyat manfaatidan ustun qo'yishlik va boshqalardir. Bularni amalga oshirayotganlarning aksariyati iqtisodiy, huquqiy madaniyatdan bexabar kishilar emas, balki iqtisodiy madaniyati pastligi tufayli bu qadriyatlarni mensimaydilar. Ehtiyojlarni oqilona tarzda qondirishning asosi bo'lgan qobiliyat va iste'dodning rivojlanishi uchun ichki va tashqi imkoniyatlar mavjud bo'lishi kerak.

Tadqiqotchi fikricha, ehtiyoj va iste'mol dialektikasini insonning qobiliyati va yangi mehnat ko'nikmalari orqali tavsiflash ehtiyoj muammosining yangi bir qirradi hisoblanadi. Ehtiyoj bilan iste'mol o'rtasidagi ziddiyat shaxsga xos belgilar – dunyoqarash, madaniyat, iste'dod va boshqalar bilan uzviy bog'langandir. Zero, *birinchidan*, ehtiyojlarning tug'ilishi, shakllanishi asosan insonning o'zi, uning xohish-istagi, orzulariga bog'liqdir. Iste'mol esa nafaqat shaxsning o'zi, shuningdek, tashqi obyektiv sabablar, ya'ni jamiyatning taraqqiyot darajasi, moddiy ne'matlarning mo'l-ko'lligi, narx-navo sohasidagi adolatparvarlik kabi omillar bilan belgilanadi. *Ikkinchidan*, inson o'z-o'zini anglashi, o'zligini shakllantirishi jarayonida ongli harakat bilan cheklanib qolmaydi. Binobarin, miyaning biologik strukturasi, organizmning fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq anglab yetilmagan mayllar ham borki, ularni inkor qilish yoki chetlab o'tish ehtiyojlarni o'rganishga xalaqit beradi. Iqtisodiy madaniyat e'tiqod darajasiga ko'tarilgan iqtisodiy tafakkurga asoslanib jamiyat va shaxslararo ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, o'zlashtirish jarayonida yuksak ma'naviy tamoyillarga suyanib faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Iqtisodiy madaniyat moddiy ne'matlarni iste'mol qilish sohasida yuksak axloqiy-intellektual me'yorlarni qaror toptiradi.

Dissertatsiyada "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida belgilangan rivojlanishning asosiy drayveri sog'lom raqobat madaniyatiga tayanuvchi inklyuziv bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilganligi qayd etilgan. Ushbu kontekstda yoshlar tadbirkorligi mehnat bozorida nomutanosibliklarni bartaraf etish, kambag'allik darajasini pasaytirish va ishlab chiqarish quvvatlarini texnologik jihatdan yangilashni rag'batlantirishning fundamental mexanizmi sifatida qaraladi. Yoshlarning raqobatbardosh bozor muhitiga integratsiyalashuvining joriy holati, institutsional to'siqlar va strategik istiqbollari davlat dasturlarining amaliy ijrosi, ixtisoslashtirilgan sanoat zonalarining faoliyati, imtiyozli kreditlash va monopoliyaga qarshi tartibga solish hamda ilg'or xalqaro tajribani milliy institutsional kontekstga moslashtirish masalalariga bog'liq hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda tadbirkor yoshlar uchun qulay huquqiy-institutsional ekotizimni shakllantirish qonunchilik hujjatlariga asoslanadi. Institutsional innovatsiya sifatida yaratilgan sanoat zonalar shunchaki yer maydoni emas, balki

biznes-inkubator vazifasini o‘tab, yoshlarning innovatsion ishlanmalarini joriy etish va tijoratlashtirish, shuningdek yirik korxonalar bilan kooperatsiya o‘rnatishga xizmat qiladi. Hududlarda sanoat loyihalarini maʼlum hududda jamlash orqali aglomeratsion samaraga (logistika xarajatlarini kamaytirish, infratuzilmani bo‘lishish) erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonda yoshlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish modeli muvaffaqiyatli transformatsiya qilinmoqda. Qulay infratuzilma (sanoat zonolari), jozibador moliya (yoshlar biznesi) va qat’iy monopoliyaga qarshi tartibga solish orqali iqtisodiy faollik kuchaytirilmoqda. Buni barqarorlashtirish uchun bir qator strategik imperativlarga e’tibor qaratish zarur:

birinchidan, yoshlar biznesi dasturidagi *shartli moliyalashtirish* barcha davlat yordam dasturlarining universal standartiga aylanishi kerak. Imtiyozlar faqat ish o‘rni yaratgan va innovatsiya qilib sog‘lom raqobat tamoyillariga amal qilgan loyihalarga berilishi, samarasiz loyihalar esa doimiy monitoring qilinib, kerak bo‘lsa imtiyozdan mahrum qilinishi lozim;

ikkinchidan, raqamli platformalar ustidan nazorat yanada kuchaytirilishi kerak. Yosh startaplarning IT, moliya yoki e-tijorat sohasidagi raqamli infratuzilmalarga adolatli va teng kirishini kafolatlash – sohadagi monopoliyani yengishning birdan-bir yo‘lidir;

uchinchidan, universitet va maktab darajasida axloqiy va innovatsion raqobat madaniyatini o‘rgatuvchi amaliy tadbirkorlik inkubatorlarini ko‘paytirish, ularni xalqaro tanlovlar bilan integratsiya qilish kerak. Innovatsion xatolar va biznesdagi omadsizliklar ijtimoiy fojea emas, balki bozor tajribasi sifatida qabul qilinadigan yangi tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, Yangi O‘zbekistonning 2030 yilga qo‘ygan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlariga erishishining hal qiluvchi omili bo‘ladi.

Dissertant xulosalariga ko‘ra, Yangi O‘zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog‘lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirish istiqbollari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1. *Yoshlarning iqtisodiy faolligini halol raqobat tamoyillari asosida shakllantirish* - yoshlarda boylikka erishishning noqonuniy yoki yengil yo‘llariga emas, balki halol mehnat, tashabbuskorlik, intizom va mas’uliyatga asoslangan iqtisodiy dunyoqarashni mustahkamlash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

2. *Ta’lim tizimiga sog‘lom raqobat madaniyati va iqtisodiy tarbiya mexanizmlarini kiritish* - maktab, kollej, texnikum va oliy ta’lim tizimida iqtisodiy madaniyat, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik etikasi, raqobat psixologiyasiga oid maxsus modullarni joriy etish yoshlarning iqtisodiy faolligini oshiradi.

3. *Hududiy teng imkoniyatlar muhitini yaratish* - qishloq va chekka hududlardagi yoshlar uchun internet, logistika, kasb-hunar tayyorgarligi, bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy faollikdagi hududiy tafovutlarni kamaytirish mumkin.

4. *Innovatsion iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish* - yoshlarni standart daromad manbai izlashdan ko‘ra yangi g‘oya, innovatsion mahsulot, raqobatbardosh xizmat va intellektual loyiha yaratishga yo‘naltirish iqtisodiy faollikning sifat jihatdan o‘sishiga olib keladi.

5. *Mehnat bozori va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish* - dual ta'lim, ish beruvchi-ta'lim muassasasi hamkorligi, stajirovka va amaliy ko'nikmalar tizimini kuchaytirish orqali yoshlarning raqobatbardoshligi oshiriladi.

6. *Sog'lom raqobatning ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash* - raqobatni boshqani siqib chiqarish emas, balki o'z salohiyatini adolatli sharoitda namoyon etish usuli sifatida anglatish, halollik, qonuniylik, kasbiy odob va javobgarlikni kuchaytirish muhim istiqboldir.

7. *Boqimandalik kayfiyati va tez boyish psixologiyasini kamaytirish* - yoshlar ongida tayyor imkoniyat kutish, oson daromad izlash, iste'molchilik ruhiyatini kamaytirib, mehnatsevarlik va natija uchun javobgarlik madaniyatini kuchaytirish zarur.

8. *Yoshlarning o'zini band qilish shakllarini ko'paytirish* - kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko'rsatish, kreativ industriya va raqamli mehnat turlarini rivojlantirish yoshlarning mustaqil iqtisodiy subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

9. *Raqobat muhitida ijtimoiy adolat mezonlarini ta'minlash* - monopoliya, tanish-bilishchilik, korrupsion to'siqlarni kamaytirish orqali yoshlar uchun teng imkoniyatlarini yaratish sog'lom raqobat madaniyatining asosiy shartidir.

10. *Iqtisodiy faollikni fuqarolik mas'uliyati bilan birlashtirish* - yoshlarda "daromad olish" bilan birga "ijtimoiy foyda keltirish", "ish o'rni yaratish", "qonuniy faoliyat yuritish", "jamiyat oldida mas'ul bo'lish" tamoyillarini kuchaytirish istiqbolli yo'nalishdir.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishda sog'lom raqobat madaniyati strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki raqobat faqat iqtisodiy ustunlik uchun kurash emas, balki axloqiy me'yorlar, ijtimoiy mas'uliyat va o'zaro ishonchga asoslangan murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, yoshlar iqtisodiy faolligining istiqbollari bevosita ularning raqobat madaniyati darajasi bilan bog'liq bo'lib, bu madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur. Yoshlarda sog'lom iqtisodiy raqobat madaniyatini shakllantirishda innovatsion-texnologik asoslar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, startap ekotizimlar va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari yoshlarning iqtisodiy faolligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayon yoshlarni nafaqat bilim olishga, balki ularni amaliyotga tatbiq etishga, kreativ yechimlar ishlab chiqishga undaydi. Shu bilan birga, innovatsion muhit sog'lom raqobatni kuchaytirib, yoshlar o'rtasida bilim va malaka asosida ustunlikka erishish imkoniyatini yaratadi.

Yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishda axloqiy-estetik qadriyatlar va innovatsion tafakkurning o'zaro uyg'unligi ta'minlash zarur. Bu uyg'unlik yoshlarni nafaqat raqobatbardosh, balki ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli, ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantiradi.

XULOSA

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirish muammolari, iqtisodiy tashabbuskorlikni

kuchaytiruvchi deterministik omillar hamda innovatsion raqobat muhitining tarbiyaviy, madaniy va institutsional imkoniyatlarini ochib berish muhim hisoblanadi. Shu ma'noda, yoshlar iqtisodiy faolligini iqtisodiy harakat emas, balki shaxsning ijtimoiy kamoloti, raqobatbardoshligi, ma'naviy-axloqiy barqarorligi va jamiyat taraqqiyotiga daxldorligini ifoda etuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida baholash zarur. Mazkur muammoni tadqiq etish yuzasidan chiqarilgan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar iqtisodiy faolligi iqtisodiy jarayonlarning passiv mahsuli emas, balki jamiyatning ijtimoiy institutlari va taraqqiyot sur'atlari bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanuvchi jarayondir. Iqtisodiy faollik ehtiyoj, manfaat, motivatsiya, mehnat xulqi, iqtisodiy ong, tashabbuskorlik va natijadorlik kabi elementlar birligidan tarkib topadi. Yoshlar iqtisodiy faolligining shakllanishida mulkchilik munosabatlari, kasbiy ixtisoslashuv, ta'lim, bozor tamoyillari va ijtimoiy me'yorlar evolyutsiyasi hal qiluvchi o'rin tutadi.

2. Faollik ijtimoiy, tarixiy jihatdan immanent rivojlangan individning intensiv va ekstensiv kurashish layoqati, insonning o'z-o'zini modellashtirishi va shaxs faoliyatini tartibga keltirilganlik belgisi hisoblanadi. Iqtisodiy faollik – insonning tafakkur erkinligi natijasida jamiyatdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi faoliyatida o'z-o'zini tashkillashtira olishi, o'zida salohiyatni mujassamlashtirgan insonning yaratuvchanlik, ishbilarmonlik faoliyatidagi tashkiliy, innovatsion va iqtisodiy xatti-harakatining maqsadga muvofiq ratsional-konstruktiv yo'naltirishdir. U bevosita shaxsning o'z o'rnini anglashi, tashabbus ko'rsatishi, manfaatni ijtimoiy me'yor bilan muvofiqlashtirish, imkoniyatni amaliy natijaga aylantirish va jamiyat taraqqiyotiga daxldor subyekt sifatida shakllanishini ifodalovchi murakkab hodisadir. Yoshlarning iqtisodiy faolligi faqat iqtisodiy sharoitlar bilan emas, balki dunyoqarash, ijtimoiy ishonch va kelajak haqidagi tasavvurlar bilan ham belgilanadi.

